



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

7(15)
2024





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№7(15) 2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: "Sadriiddin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O'zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Yo'ldosh G'afurovich, yuridik fanlari nomzodi, dotsent

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Rahimov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Vohidov Shodmon Husenovich, tarix fanlari doktori, professor, Marmara universiteti (Turkiya)

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sidiqova Diloru Shavkatovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Abdullayeva Feruza Nurillovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Saidqulova Firuza Farmonovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhammadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rajabov To'xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)

Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

- 4 **Toshtemirov Oybek Abidovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor
- Axadov Ma'murjon Sharipovich**, pedagogika fanlari doktori (DSc)
- Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
- Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
- Jumayev Rustam G'aniyevich**, Siyosatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
- Jo'rayev Akmal Razzoqovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
- Shadiyeva Nigora Sharipovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Hayitov Hamza Axmadovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
- Nazarov Mustaqim Rashidovich**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- Jamilov Yusuf Yunus o'g'li**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Uzoqov Asliddin Mexritdinovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Murtazoyev Azizbek Nusrat o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Ergashev Jahongir Yunus o'g'li**, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Nazarov Akmal Mardonovich**, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
- Murodov Sherzod Normonovich**, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Muxtorov Erkin Mustafoyevich**, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
- Po'lotova Yulduz Asadovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Ashurova Marhabo Sayfulloyevna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Omonova Dildora Nekmurodovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- Adizova Nigora Baxtiyorovna**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- Raupov Sohob Saidovich**, tarix fanlari nomzodi, dotsent
- Sirojov Ochil Sirojovich**, tarix fanlari nomzodi, professor

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX..... 7

Ibragimov Raxmon Ziyodullayevich. Toshkent vohasi paleometall davri jamiyati taraqqiyotida tabiiy resurslarning ahamiyati	7
Ergashev Jahongir Yunus o'g'li, Mexmonov Bexruz Alisherovich. Indira Gandi tashqi siyosatida Hindistonning Pokiston va Xitoy bilan munosabatlariga oid ayrim mulohazalar	10
Durdona Jamolova. Germaniyada tahsil olgan Buxorolik talaba qizning bir maqolasi xususida mulohazalar	16
Jurayev Sherzod Norovich. Sulton Husayn hukmronligi davrida tibbiyot	21
Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li. Buxoro husayniyaxonalari tarixidan	25
Ergashev Jahongir Yunus o'g'li, Tohirova Maftuna Tolibovna. O'rta asr manbalarida Buxoro qorako'li xususida	29

ANIQ FANLAR..... 33

Qurbonov G'ulomjon G'afurovich, Aminov Feruz Hamid o'g'li. Qiziqarli olimpiada misollari yordamida o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish.....	33
Hayitov Dilshod Ergashovich. Fizikani o'qitishda interfaol metodlar: "keys-stadi" metodi.....	37
Jumayev Axrom Asror o'g'li. Talabalarning energetikaga oid kreativligini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	41
Musurmonov Ma'ruf Akram o'g'li. Oliy ta'limda integratsiyalashgan ilmiy-tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy sabablari va maqsadlari	48
Jabborova Gulasal Sultonovna. Matematika darslarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.....	51

PEDAGOGIKA..... 55

Manzura Asqarova. Produktiv o'qish o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida	55
Машхура Музафаровна Юлдашева. Технологии совершенствования толерантного мышления и гражданского позиционирования у студентов на основе ценностно-ориентировочных подходов .	59
Xudoykulov Rustam Quchqorovich. Bo'lajak muhandislarda iinovatsion yondashuvlar asosida "Materiallar qarshiligi" fanini o'qitishda texnologik kompetentlikni shakllantirish metodikasi	63
Kayumov Ibragim Fayzullayevich. San'atda yashiringan tarix: said bolta - zoda saidiyning hayoti va ijodiy faoliyati	66
Suyarov Nodirjon Taxirovich. Milliy va mintaqaviy materiallarni ta'lim tizimiga integratsiya qilishning o'ziga xos jihatlari	69
Jo'rayeva Mahliyo Rashidovna. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga doir ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish.....	72
Рузиева Саодат Хасановна. Использование мультимедиа в преподавании английского языка....	77
Munisa Nayimova. Abdurauf Fitratning milliy cholg'u asboblari haqidagi qarashlari	84
Ibragimova Shaxnoza Tulqinovna. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan ta'lim jarayonining institutsional modeli.....	87
Xo'janazarov Zayniddin Rashidovich. Oliy ta'limda zamonaviy ta'lim vositasi sifatida aqlli texnologiyalarning imkoniyati va ahamiyatini tahlil qilish	92
Feruz Sadikova. Talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish	96
Tursunova Saida Isakovna. Ona tilidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nuqtini rivojlantirish.....	99
Saidov Izzatillo Istamovich, Ro'ziqulov Mels Alijon o'g'li. Qisqa masofaga yugurish texnikasini o'rgatish uslubi.....	102
Jalilov Erkin Ergashevich. Talabalarning kasbiy kompetentligini fanlararo integratsiya orqali shakllantirish.....	108
Mamatxanova Nargiza Toxirovna. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning o'rni	112
Nusratova Shahnoza Ibodullayevna. 4 - sinf o'qish savodxonligi darslarini raqamlashtirishda badiiy asar ustida ishlash	117

6	Askarova Shirin Muxiddin qizi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarini tashkil etishda integratsiya va innovatsiyaning o'rni	120
	Xusnidinova Nozima Ashurovna. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitishda talabalarning kreativligini rivojlantirish.....	123
	Oktabrov Mohirjon Adhamjon o'g'li. Tasviriy san'at darslarida talabalarning kasbiy pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish	129
	Umarova Nilufar Xasanovna. Direktorlar boshqaruv muloqotida kommunikativ strategiyalar pedagogik muammo sifatida	132
	Sulaymonova Saodat Usubxonovna. Animatsiyaga asoslangan vositalar yordamida o'quvchilar uchun murakkab ekologik tushunchalarini soddalashtirish texnologiyalari	137
	Hasanova Dilafro'z Bo'ronovna. Informatika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarning roli	140
	Ergashova Gulzoda Baxtiyorovna. Masofaviy ta'lim muhitida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar og'zaki va yozma nutqini o'stish metodikasi.....	144
	Маматханова Наргиза Тохировна. Важность подготовки к социально-педагогической деятельности в акмеограмме педагога	149
	Abduraxmonova Gulasal Ravshanovna. Ona tili-o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish.....	156
	Niyazova Sitara Davronovna. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari	160

FILOLOGIYA..... 163

Roza Xasanovna Niyozmetova. Adabiy matnlarini o'rganish jarayonida lug'at ishi	163
Бабаева Шоира Баймурадовна, Атакулова Кумуш Зафар кизи. Роль антитезы в романе Л.Н. Толстого "Война и мир"	167
Мавлонова Феруза Рустам кизи. Особенности употребления фразеологизмов в речи автора и героев произведений И. С. Тургенева	171
Azimov Sanjar. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni o'qitishda kompyuter grafikasining o'rni	174
Azimov Sanjar Samadovich. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy va ijodiy faoliyatida estetik ehtiyojlarni shakllantirish metodikasi	177
Abdisamatova Dildora Sobirovna. Ona tili darslarida diologli muloqot madaniyatini takomillashtirish metodikasi	179

PSIXOLOGIYA 183

Xayrullaeva Zebiniso Toxirovna. Hayotiy qadriyatlar muammosini psixologiya fanida tadqiq etilishi.....	183
Dilafroz Dadamirzayevna Oribboyeva. Bulling profilaktikasiga tizimli yondoshuv.....	187

Ergashev Jahongir Yunus o'g'li
Buxoro davlat universiteti arxeologiya va
Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,
tarix fanlari falsafa doktori (PhD)
j.y.ergashev@buxdu.uz
j.ergashev91@mail.ru

Tohirova Maftuna Tolibovna
Buxoro davlat universiteti magistranti

O'RTA ASR MANBALARIDA BUXORO QORAKO'LI XUSUSIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlari orasida chorvachilik keng tarqalganligi, ayniqsa, ular orasida qo'ychilikning ahamiyati yuqori ekanligi ularning diniy qarashlarida ham o'z aksini topganligi, qorako'lichilik eng qadimgi davrlardan, keyingi zamonlargacha mahalliy xalqimizning qo'ychuvonlik seleksiyasi uzviy davom etgani, uning an'analari bir necha ming yilliklarga borib taqalishi va qorako'lichilik o'rta asrlarda emas, balki qadimgi davrlardan boshlab rivoj topganligi, o'rta asr muarrix va sayyohlari asarlaridagi qorako'lichilik bilan bog'liq ma'lumotlarning ilmiy va tanqidiy tahlillari tarixiy manba va adabiyotlar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: qorako'lichilik, senmuvr, Marko Polo, Ibn Havqal, xalaxula, jun.

В СРЕДНЕВЕКОВЫХ ИСТОЧНИКАХ, В ЧАСТНОСТИ БУХАРСКОГО КОРАКОЛИ

Аннотация. В данной статье научно-критический анализ информации выявленной с помощью исторических источников и литературы показано что скотоводство широко распространено среди народов Средней Азии, особенно среди них, значение овсеводства отражено в их религиозных воззрениях, скотоводство продолжалось органически с древнейших времен, а селекция овсеводства нашего местного населения продолжилась органично, дело в том, что традиции насчитывают несколько тысячелетий и скотоводство развивалось не в средние века, а с древнейших времен.

Ключевые слова: кузнечное дело, сенмувр, Марко Поло, Ибн Хавкал, халахула, шерст.

IN MEDIEVAL SOURCES, IN PARTICULAR BUKHARA KORAKOLI

Abstract. In this article, a scientific and critical analysis of information identified with the help of historical sources and literature shows that cattle breeding is widespread among the peoples of Central Asia especially among them, the importance of sheep breeding is reflected in their religious beliefs, cattle breeding has continued organically since ancient times, and the selection of sheep breeding by our local population has continued organically, the fact is that the traditions go back several thousand years and cattle breeding developed not in the Middle Ages, but from ancient times.

Key words: blacksmithing, Saint Mouvre, Marco Polo, Ibn Khavkal, halahula, wool.

Kirish. Tarixchi olimlarning fikricha, qo'ychuvonlik yurtimizda eng qadimgi davrlardan boshlab e'zozlangan xo'jlik sohalaridan biri bo'lsada, o'rta asrlar davriga qadar qorako'l qo'ylarining alohida zotlari haqida o'sha davr manbalarida aniq fikrlar mavjud emas. Qorako'l qo'ylari va qorako'lichilik xususidagi ilk ma'lumotlar olimlarning ta'kidlashlaricha, VIII asrda Xorazm vohasiga borib taqaladi. Shuningdek, qorako'l qo'ylarning terisi bilan savdo – sotiqning keng miqiyosda olib borilganligi xususida yozma manbalardagi ma'lumotlar X asrdan boshlab uchraydi degan fikrlarni ilgari suradilar.

Metodlar. Maqola umume'tirof etidgan tarixiy taqqoslash, retrospektiv tahlil, tizimlashtirish, kabi usullar asosida bayon etilgan bo'lib, o'rta asrlarda Buxoro qorako'li haqida ayrim masalalar tadqiq qilingan.

Tadqiqot natijalari. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ilk o'rta asrlarda ham qo'yning ilohiylashtirilishi Movarounnahda saqlanib qolingan bo'lib, arxeologik ma'lumotlar natijasida ochib o'rganilgan yodgorliklardagi devoriy sur'atlar ushbu fikrimizni isbotlaydi. Misol tariqasida keltirib o'tadigan bo'lsak, Samarqandning VII asrga oid arxeologik yodgorliklari devoriy tasvirlarida suvda – quruqlikda – havoda birdek yashay oladigan afsonaviy, mifologik obraz senmuvrilar tasvirlangan bo'lib, ular orasida boshi qo'yniki, old oyoqlari tepa qismida qanotlari bor va belidan pasti ilon shakldagi mifologik

obraz tasvirlangan. Bu mifologik obraz qo'ying ilohiyligi va uning o'sha davr odamlari tasavvuridagi borlikning barcha yerida paydo bo'la oladigan va yashaydigan ilohiy qo'y ramziga ya'ni islomga bo'lgan mahalliy aholining e'tiqodning ilk o'rta asrlar davridagi talqini ekanligini bilib olish mumkin [6. 528].

Ushbu fikrni keltirib o'tishimizdan maqsad esa, qorako'lichilik eng qadimgi davrlardan, tokim keyingi zamonlarga mahalliy xalqimizning qo'ychuvonlik seleksiyasi uzviy davom etgani, uning an'analari bir necha ming yilliklarga borib taqalishi va qorako'lichilik o'rta asrlarda emas, balki qadimgi davrlardan boshlab rivoj topgan degan fikrni ilgari surishdan iboratdir. Ayrim axborot manbalari esa, qorako'lichilik va qorako'l qo'ylarining yurtimizda paydo bo'lishini VIII asrda arab xalifaligining Markaziy Osiyoni istilo qilishi bilan bog'lashga urinadilar. Ularning fikriga ko'ra, VIII asrda arab xalifaligining Movarounnahrni istilo qilishi bu yerga arab zotli qo'ylarning kirib kelishiga zamin hozirladi. Mahalliy qo'y navlari bilan arab zotli qo'ylarning chatishishi natijasida esa qorako'l zotli qo'ylar paydo bo'ldi degan fikrlar internet manbalarida uchraydi. Ayrim holatlarda esa, arab zotli qo'ylarning mahalliy sharoitga moslashuvi qorako'l zotli qo'ylarning paydo bo'lishi olib kelganligi ham qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin [1].

Qorako'lichilikning paydo bo'lishiga oid yuqorida keltirib o'tgan fikrlarimizga qo'shimcha ravishda shuni alohida ta'kidlashni lozim topardikki, xo'jalikning bu tarmog'i, eng avvalo faqat oziq – ovqat mahsulotlari yetishtirib berish emas, balki, kiyib – bosh va zarur holatlarda himoya uchun charmdan ishlangan harbiy anjomlar uchun ham kerak edi. Shu sababli, xalqimiz seleksiyasi mamlakatimizning turli mintaqalarida doimiy ravishda olib borilgan va mintaqa tabiiy – iqlimiy sharoitlariga mos keluvchi qo'y zotlarining yaratilishini ko'rishimiz mumkin. Fikrimizning isboti sifatida arab istilosi davriga oid rxeologik yodgorliklardagi qo'y tasviri bilan bog'liq fikrlarni keltirishni lozim topdik.

Qoraqalpog'istonning Govurqal'a yodgorligidan topilgan mozorda milodiy IV – VIII asrlarga oid ayrim ossuariy qopqoqlarida qo'y haykalchasining uchrashi ham yuqoridagi fikrlar bilan hamohangdir. Qo'ying ilohiyligi, tumor sifatida olib yurilishi, qolaversa tamg'a sifatida ishlatilishi ham qo'ychilikning yurtimizda qadimgi davrlardan taraqqiy etibgina qolmasdan insonlarga baxt – omad va to'qlik olib kelishi ramzi bo'lganligini bilib olishimiz mumkin. Fikrimizni dalili sifatida Sopollitepa yodgorligidan topilgan qizlarning soch to'g'nog'ichida tog' qo'yi oldida turgan kishining tasvirlanishi, Termizning Zartepa yodgorligidagi g'ishtlarda qo'y tuyog'ining izi topilishi fikrimizning yaqqol dalili bo'lib hisoblanadi [3. 44].

X asrda Movarounnahda bo'lgan arab sayyohi va tarixchisi ibn Havqal o'zining "Kitob sur'at al – arz" ("Erning sur'ati") asarida haqiqatdan ham qo'ylar haqida ma'lumotlarni keltirgan. Ammo, u qorako'l qo'ylari degn fikrni ishlatmaganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirib o'tgan fikrlarimizning birida Ibn Havqal Xorazmda qorako'l zotli qo'ylarning vujudga kelganligi bilan bog'liq fikrlarni bildirganiga to'xtalib o'tgan edik. Ibn Havqal, Marko Polo, Afanasiy Nikitin kabi sayyohlarning qorako'l haqidagi fikrlarini, biz quyida alohida holatlarda tahlil etamiz.

Ibn Havqalning VIII asrda qorako'lichilikning Xorazm vohasida paydo bo'lgan degan fikr va ushbu fikrni tarqatgan internet manbasi [1] xususida aytish mumkinki, Ibn Havqalning biz yuqorida nomini zikr qilgan asarini 2011-yilda taniqli sharqshunos olim Sh. S. Kamoliddin faqat Movarounnah bo'limini o'zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirgan.

Ushbu asarning XIX bobi "Xorazm boyliklari" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda qorako'lichilik yoki qorako'l qo'ylarning Xorazmda yetishtirila boshlangani xususida biror fikr mavjud emas, asarning 39 sahifasida esa, qo'ychilik emas, chorvachilik xususida quyidagi fikrlarni o'qish mumkin. Jumladan: "... ularning mamlakatida na oltin, na kumush yoki [boshqa biror] yer [osti] boyliklarining [konlari] mavjud. Ularning hamma boyliklari turklar bilan savdo qilish va chorva boqish [tufayli] dir [4. 39]" keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, internet manbasi Ibn Havqalning chorva boqish degan fikrini qorako'lichilik va shu soha bilan shug'ullanish deb tushungan. Shu sababli ushbu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Bundan tashqari Ibn Havqalning yuqorida nomi tilga olingan asrida, umuman Qorako'lichilik yoki qorako'l zotli qo'ylar tilga olinmaganligini ham ko'rishimiz mumkin. Asarning XXIV bobi "Buxoro boyliklari va noz - ne'matlari" deb nomlanib bu yerda ham qorako'lichilik yoki qo'ychilik degan fikrlarni umuman uchratmadik [4. 48]. Bir marotaba chorvachilik degan fikr tilga olinadi.

Xulosa qilib aytganda internet manbalarida keltirilgan Ibn Havqalning qorako'l qo'y zotlari va ularning paydo bo'lishi tarixi xususidagi fikrlar mutlaqo xato bo'lib, bu fikrlarni shaxsiy fikr – mulohazalar mahsuli deb tushinish lozim deb hisoblaymiz.

XIII asrda Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qilgan Venesiyalik savdogar Marko Polo o'zining Markaziy Osiyo mintaqasiga bag'ishlangan estaliklarida qorako'lichilik va qo'ylar xususida to'xtalib o'tadi. uning xotiralarida qorako'l zotli qo'ylar alohida tilga olinmagan bo'lsada, mintaqada qo'ylarning 400, 500, 600 talab alohida otarlar holatida boqilishi, pomir tog'laridagi qo'ylarning esa, o'ziga xosligi

(ehtimol, hisor zotlilikiga ishoradir), ular boshqa qo'ylardan o'zining kattaligi va semizligi bilan ajralib turishi, qo'y yungidan matolar to'qilishi va uning terisidan zarur vaqtlarda kiyimlar tayyorlanishi xususidagi ma'lumotlarni qoldirgan [8. 248-249].

Tarixiy tadqiqotlar Marko Poloning o'zi estalik yozmaganligi, uning og'zidan eshitganlarini Rustikano ismli shaxs yozib olganligini aniqlaganlar. Bu esa, Marko Polo estaliklarining ham manbaviy ahamiyatini bir qadar pasayishiga sabab bo'ladi. Chunki, Rustikano ehtirosiga berilish natijasida voqealarga o'z munosabati va nuqtai – nazari yuzasidan kelib chiqib yondashganligi ham ehtimoldan uncha yiroq emas.

Shunday bo'lsada, qorako'l zotli qo'ylar va qorako'lcha, XIV – XV asrlardayoq Yevropa mamlakatlariga tanilib ulgurgan edi. Belgiyadagi ibodatxonalarning birida saqlanayotgan Zandanicha matosida mahalliy aholining hayot daraxti haqidagi tasavvurlari tushirilganligini ko'rishimiz mumkin. E'tiborlisi shundaki, hayot daraxti matoning o'rtasida tasvirlangan bo'lib, uning ikki tomonidan qo'y zotlarining o'ziga xos jingalaksimon yungilari o'rab olganligi o'z aksini topgan [6. 260]. Ushbu tasvir ilk o'rta asrlarning oxiridayoq qo'ylarning maxsus seleksiyasi orqali qo'y zotlarining yangi turlari mavjud bo'lganligini ko'rsatib beradi.

XIV – XV asrlarda Yevropaning Italiya, Germaniya, Gresiya, Skandinaviya mamlakatlari hududlarida sotilgani va uning bu mintaqada qadrlangani, narxining yuqoriligi bilan bog'liq ma'lumotlar saqlanib qolingani. Bundan tashqari, XV asrda yashagan va "Uch dengiz osha sayohat" asarini yozgan rossiyalik savdogar Afanasiy Nikitin ham o'z xotiralarida qorako'l qo'y zotlari va uning qimmatbaho mo'ynasi xususidagi ma'lumotlarni yozib qoldirganligi tarixdan ma'lum. Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi jumladan, yurtimiz aholisi xalqaro savdo – sotiqda muhim rol o'ynaganlar. Qorako'l qo'ylarining yungidan matolar to'qib, uni tashqi bozorlarga olib chiqqanlar va Sharq va G'arbda birdek qadrli matolardan biri bo'lib qolgan.

Uzoq Sharq mamlakatlari jumladan, Xitoyning o'zida ham eng qadimgi davrlardan o'q ipak yetishtirilsada, unga bo'lgan g'arbdagi ehtiyoj yildan-yilga o'sib borganligini tarixiy dalillar isbotlaydi. Oddiy xitoylik garchi ipak qurtini o'zi boqib pilla yetishtirsada, ipak matolaridan tikilgan kiyim-kechaklar ichki va tashqi bozorda yuqori baholanib, kambag'al kishilar ushbu mahsulot tovarlarini sotib olishga qurbi yetmasdi. Shuning uchun Turkiston mintaqasidan Xitoyga keltiriladigan va ipakka nisbatan arzon bo'lgan paxta matolariga ipakning vatanida talab katta bo'lgani bejiz emas.

Xitoy tarixiy adabiyotlarida paxtadan to'qilgan matoning xitoycha nomlari "sydebu", "mabu", "gebu" kabi qator turlari va ularning sifati haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. Shuningdek, manbalarda "sydebu" deb nomlanuvchi mato turi boshqalaridan keskin farq qilib o'ta sifatli bo'lishi bilan, mayin va nafis oq rangda ekanligi, ipak matoga o'xshab ketishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, qorako'l qo'ylar yungidan to'qilgan matolar ham tarixiy manbalarda tilga olinadi [9. 315].

Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid Xitoy tarixiy adabiyotlarida ham qorako'l qo'ylari haqida ma'lumot berilgani, ularni *xalaxula* deb nomlanishi, va ularning yungidan to'qilgan matolarni xitoyliklar *jun* tarzida ishlatishi xususidagi fikrlar mavjud. XV – XVI asrlarga oid Xitoy tarixiy manbalaridan bo'lgan Min shuni tahlil etgan olimlar, ushbu manbada xalaxula – atamasiga sharh berar ekan, uning jonivorni nazarda tutilganligini inobatga olib, qorako'l so'zining xitoycha talfuzi degan xulosalarga kelganlari xususidagi ma'lumotlar mavjud [7. 62].

Xitoy manbalarida qorako'l qo'ylarning yungidan to'qilgan jun matosi xususida ham olimlar turlicha fikrlarni bildirganliklarini ko'rishimiz mumkin. Ayrim olimlar jun atamasi orqali xitoyliklar ehtimol barxat matosini nazarda tutgan bo'lishi ham mumkin degan fikrlarni bildirganlar. Ular bu matoni Samarqand yaqinidagi qishloqlarda tayyorlangani va chetga ko'plab eksport qilinganligi bilan bog'lashga harakat qiladilar. Ikkinchi bir guruh olimlarning fikriga ko'ra esa, jun atamasi dastlab Xitoyning shimoliy g'arbiy qismida yashagan shu nomli qabilalarga nisbatan ishlatilgan atama bo'lib, keyinchalik Markaziy Osiyoda qo'y yungidan tayyorlangan matolarni anglatganligi bilan bog'lashga harakat qiladilar [5. 199].

O'rta asrlar davrining keyingi bosqichlarida ham Markaziy Osiyo mintaqasi aholisi qorako'l va qorako'lcha savdosida ustunlikni qo'ldan bermadilar. Bu ustunlik ularning qo'lida XX asr boshlariga qadar qolganligini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Ma'lumotlarga qaraganda, XVII – XVIII asrlarda Rossiyaning qator yarmarkalarida qorako'l terisi va yungi qimmat baholarda sotilgan. Ko'rsatib o'tilgan asrlarda Tobolsk, Tver bozorlarida va Nijniy Novgorod, Irbit yarmarkalarida qorako'l va qorako'lcha bilan asosan Buxoro va Xiva savdogarlari savdo – sotiq ishlarini amalga oshirganlar va Rossiya ishbiarmonlari, kosiblarini ushbu mahsulot bilan doimiy ravishda ta'minlab turganliklari bilan bog'liq ma'lumotlar manbalarda tez – tez uchrab turadi [2].

XX asr boshlariga qadar buxorolik va xevalik savdogarlar yuqorida ko'rsatilgan bozor va yarmarkalarda ushbu mahsulot sotishda yetakchilik mavqelarini o'zlarida saqlab qolganlar. Ammo,

Rossiya imperiyasiga Buxoro amirligi va Xiva xonliklarining yarim qaram bo'lib qolishi, Rossiya imperiyasi ushbu davlatlarni o'zining sanoat mahsulotlari sotiladigan va xom ashyo tashib ketiladigan bozoriga aylantirib borishi jarayonida qorako'l va qorako'lcha mahsulotini ham asta – sekinlik bilan imperiya korchalonlari egallab ola boshlaganliklarini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa qorako'l va qorako'lcha mahsulotlarini tashqi bozorga xususan Yevropa davlatlariga sotish va bu orqali katta daromad olishni Rossiya imperiyasi o'zining monopol huquqiga aylantirgan edi.

XX asr boshlarida Yevropa davlatlarida olib borilgan va qorako'l qo'y zotlarini yetishtirish maqsadidagi ilmiy tadqiqotlardan xavotirga tushgan imperiya korchalonlari, agar qorako'l savdosida monopol huquq qo'ldan boy berilmasligi uchun o'ziga xos choralar izlaganlari tarixdan yaxshi ma'lum. Bu xusudagi fikrlarga quyiroqda yana to'xtalib o'tamiz. Imperiya korchalonlarini xavotiriga asosiy sabab, ularning jahon bozorida qorako'lchilik sohasidagi ustunlikni qo'ldan berishgina emas, balki, daromad manbaidan ajralib qolishi bilan bog'liq edi. Rossiya matbuotida agar qorako'lchilikda Yevropa davlatlarning ishlari ilgari siljib iqlimga moslashtirilsa, Rossiya bu sohada yetakchilikdan ayrilib qolishdan xavfsiragan. Bu esa Turkiston o'lkasidan har yili keladigan daromadning 5 mln rubldan ko'proqqa kamayib ketishiga olib kelishi xavfi ochiq yozilgan [10. 43-45].

Xulosa. O'rta asrlarda qorako'l va qorako'lcha haqidagi ma'lumotlar yetarli darajada bo'lmasada, uning Markaziy Osiyo davlatlari mintaqasi xususan Buxoro va uning aholisi uchun ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda, o'rta asrlardayoq, Yevropa va Rossiya davlatlari hududlarida qorako'l va qorako'lcha mashhur bo'lib, doimiy ravishda unga bo'lgan talabning oshib borishini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. www.karakul – lider.ru.history, www.mexaimoda.ru.
2. www.mexaimoda.ru, www.karakul – lider.ru/history.
3. Альбаум, Л.И. Балалык-тепе. К истории материальной культуры и искусства Правобережного Тохаристана / Л.И. Альбаум. - Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1960. - 228 с.
4. Ибн Хавқал. Китоб сураат ал-Ард. Мовароуннахр // Араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С.Ҳасанов. – Тошкент. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2011. – 400 бет.
5. История Самарканда. В 2-х томах / Отв. ред. И.М. Муминов. Ташкент: ФАН, 1969. - 195+505 с.
6. Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Т.: Фулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2011. - 664 с.
7. Садвакасов Г.С. (отв. ред.) Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV-XIX вв Алматы: Гылым, 1994. – 272 с.
8. Книга Марко Поло. Серия: Путешествия. Открытия. Приключения. – Алма-Ата: Наука, 1990. – 352 с.
9. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. - Новосибирск: Наука. Сиб. отд-ние, 1989. – 432 с.
10. Шимоновский В. В Москве перед ярмаркой // Туркестанский сборник. Том. 505. – С. 43 – 45.

**Buxoro davlat pedagogika instituti muassisligidagi
"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"
xalqaro ilmiy-metodik jurnali
barcha ta'lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.**

**"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o'zbek, rus, ingliz
tillarida maqolalar chop etiladi.**

**Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti**

Tahririyat rekvizitlari:

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ
Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола кўчаси, 11
Р/с 20208000104858465002
Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966
ИНН 301637939 ОКНХ 87100

Мақолаларни қабул қилиш учун
<https://t.me/alijonhr>, <https://t.me/AzizaHusenovaSh>

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA Xalqaro ilmiy-metodik jurnal 2024-yil 7-son (15) 2022-yil avgust oyidan chiqa boshlagan. Нашр индекси: 1397	Buxoro davlat universiteti nashri Jurnal davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas'ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 07.11.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 11.11.2024 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 32,0 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 736. Bahosi kelishilgan narxda. "Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.
---	--	---